

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА О'РТА ГУРУХ 4,5 YOSHЛИ BOLALAR ADAPTATSIYA JARAYONIDAGI HOLATLAR

Nazarova Gavhar

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar
18-DMTT o'rta guruh tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamda 4,5 yoshli bolalarda kuzatiladigan adaptatsiya jarayonidagi holatlarda qo'llaniladigan usullar haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oila, bola, muhit, bog'cha, tashqi dunyo, yordam.

Adaptatsiya – yangi sharoitlar va atrof – odatiga ko'ra har bir organizm qobiliyati.

Bu davrda jismoniy va ruhiy kuch talab qiladi. Bu jarayon barcha turlardan farqli ravishda alohida o'rinni tutadi va asosan shaxsning shaxsiy fazilatlariga bog'liq.

Bolalar bog'chasida moslashtirish turli xil yo'llari mavjud, u 1-2 haftadan so'ng yangi vaziyat uchun tezda o'rganib qolishi aksincha umuman deb bo'lmasa osonlikcha moslasha olmasligi mumkin bunday hollarda bolalarni har gal injiqlik qilib kelsada ko'ngliga qarashlik kerak, bolaga baland ovozda gapirgan bilan befoyda u bari bir ketish payida bo'ladi, shu holatda uyidagilarini ko'rsa meni urushdi deb ham aytib berishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarni ko'proq rag'batlantirib turish kerak ya'ni shirinliklar bilan shundagina bolani ixtiyori asta sekinlik bilan sizga buysunadi.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati.

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

Bolani hayoti va sog'ligini muhofaza qilish;

Bolani kamsitilishga yo'l qo'ymaslik ;

Bolani sha'ni va qadr qimmatini himoya qilish;

Bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Yangi kelgan bola albatta birinchi kundan yig'lashni boshlaydi bunday hollarda bolani urushish, itarib tashlash, kamsitish hollari kuzatilmasligi kerak agar yuqorida ko'rsatilgan hollatlar bolaga nisbatan ko'rsatilsa tarbiyachilar o'z doiralari bo'yicha qonun oldida javob beradilar. Biz tarbiyachi pedagoglar bolalarni qancha tezroq yangi muhitga moslashtirsak ko'proq marraga erishgan bo'lamiz deb o'ylayman

O'yin bola uchun o'yin emas, voqelikdir. (K. Ushenskiy)

Adaptatsiya davridagi bolalarga ko'proq harakatlanish istagini tug'diruvchi o'yinchoqlardan; koptok, sharlar, avtomobillar, va boshqa harakatli o'yinlar o'ynatish kerak shunday holatda yangi bolalar chetda qolib ketishmasdan guruhga qo'shilishlari oson bo'ladi.

Bolalarni janjallashmasligini istaysizmi

Albatta bu holat yangi kelgan bolalarda ko'p ko'zatiladi, buyumlarini hech kimga bermaslik faqat onasini olib ketishini kutish bola uchun kun davomidagi oson ovunchoq bo'ladi, yo'q bu holatda tarbiyachi bolaning o'zining dunyosi tomon tortishi zarur atrofdagilarni hurmat qilishga, behuda tortishib qolmaslikka, o'yinchoqlarni qizg'onmaslikka chorlashi shart, albatta bu holatda uydagi muhit ham katta ta'sir etadi.

Avvalo ota-onalar muhimroq rol o'ynaydigan holatlardan biri farzand bitta qiz bo'lsa yoki o'g'il bola bo'lsa bo'lishmaslik degan tushunchalar bo'ladi. Faqat o'zimga tegishli hech kimga bermayman degan tushunchalarni mavjudligia ham ota-onalar sabab bo'libgina qolmay moslashish jarayonini ham qiyinlashtirishadi.

Shuni takidlab o'tishni joiz deb bilamanki yangi muhitga o'rganadigan bolaga atrofdagilar ota-onasi va tashqi muhitning ham ta'siri kuchli bo'ladi. Biz bolalarni har qanday holatda ham pedagogik mahoratimiz ila kelajakka tayyorlashimiz shart.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ilk qadam maktabgcha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018 yil
2. Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi.
3. Baxtli bola ma'naviyati Toshkent 2018.